

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2026- yilning yanvar-mart oylarida Sirdaryo viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 7 756,4 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2025- yilning yanvar-mart oylari bilan taqqoslaganda 8,8 % ga o'sdi.


YAHM deflyator indeksi 2025- yilning yanvar-mart oylari narxlariga nisbatan 113,5 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Sirdaryo viloyatining qo'shgan hissasi 1,7 % ga yetdi.

2026- yilning yanvar-mart oylarida Sirdaryo viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



- YAHM o'sish sur'ati
- YAHM hajmi
- YAHM deflyator indeksi
- YAIMga qo'shgan hissasi



2026- yilning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

	Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
	2025- yil	2026- yil	
I. YAHM, jami	6 280,0	7 756,4	108,8
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	6 070,4	7 512,5	108,7
mahsulotlarga sof soliqlar	209,6	243,9	112,6
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	6 070,4	7 512,5	108,7
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	959,4	1 145,4	107,8
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	2 516,0	3 346,1	109,8
sanoat	2 100,0	2 852,4	108,9
qurilish	416,0	493,7	114,6
xizmatlar	2 595,0	3 021,0	107,9
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	834,0	988,9	112,7
tashish va saqlash, axborot va aloqa	269,5	342,3	116,6
boshqa xizmat tarmoqlari	1 491,5	1 689,8	103,6



Quyida keltirilgan infografikadan ko'rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 8 182,8 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 7,1 % ga kamdir.

2026- yilning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi (ming so'mda)



2026- yilning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)



Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

	2025- yil	2026- yil
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	96,7	96,9
mahsulotlarga sof soliqlar	3,3	3,1
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	15,8	15,2
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	41,5	44,6
sanoat	34,6	38,0
qurilish	6,9	6,6
xizmatlar	42,7	40,2
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	13,7	13,2
tashish va saqlash, axborot va aloqa	4,4	4,6
boshqa xizmat tarmoqlari	24,6	22,4




2026- yilning yanvar-mart oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 96,9 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 3,1 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 15,2 % ni, sanoat tarmog‘i 38,0 % ni, qurilish 6,6 % ni va xizmatlar sohasi 40,2 % ni tashkil qildi.

Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlaribo‘yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2025- yil



2026- yil



● Yalpi qo‘shilgan qiymat


● Mahsulotlarga sof soliqlar



YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 1,2 f.p. (2025- yilning yanvar-martida – 0,6 f.p.), sanoat tarmog'i – 3,0 f.p. (2025- yilning yanvar-martida – minus 3,5 f.p.), qurilish tarmog'i – 1,0 f.p. (2025- yilning yanvar-martida – 0,4 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 3,2 f.p. (2025- yilning yanvar-martida – 2,1 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.


Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,4 f.p. (2025- yilning yanvar-martida – minus 0,1 f.p.)ga ko'paydi.

2026- yilning yanvar-mart oylarida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)




2026- yilning yanvar-mart oylarida YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 107,8 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 15,2 %), sanoatda – 108,9 % (38,0 %), qurilishda – 114,6 % (6,6 %), xizmatlar sohasida – 107,9 % ni (40,2 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 112,7 % (13,2 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 116,6 % (4,6 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 103,6 % dan (22,4 %) iborat bo'ldi.

Yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2026- yilning yanvar-mart oylarida YAHM deflyatori indeksi 2025- yilning yanvar-mart oylaridagi narxlarga nisbatan 113,5 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoatda – 124,8 % va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 110,8 % qayd etildi.

Yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2026-yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik 4 807,9 mlrd. soʻmni tashkil etdi (2025- yilning yanvar-mart oylarida – 4 041,2 mlrd. soʻm). YAHMdagi ulushi 64,0% ni (2025- yilning yanvar-mart oylarida – 66,6%) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining oʻtgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bogʻliq.

Yanvar-mart oylarida kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)

Hajmi, mlrd.soʻm

Ulushi, % da

2025- yil

4 041,2

66,6 %

2026- yil

4 807,9

64,0 %

